

“Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi”



Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875 - 1919) tavalludining 150 yilligi
munosabati bilan uslubiy qo‘llanma

Xorazm viloyat Qo‘shko‘pir tuman Axborot kutubxona markazi

“Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi”

(kutubxona xodimlari, zarurat tug‘ilganda kitobxonlarga foydalanish uchun)

Xorazm viloyat Qo‘shko‘pir tuman Axborot kutubxona markazi

bibliografiya xizmati

Qo‘shko‘pir – 2025y.

UDK 929

B -91

Axbotot - bibliografiya xizmati tomonidan tayyorlandi

Tuzuvchi J. Narboyeva

Ma'sul muharrir G. Saidova

“Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi” Mahmudxo‘ja Behbudi: Uslubiy qo‘llanma / tuzuvchi J. Narboyeva va kompyuterda tuzuvchi S. Zarifboyeva. - Xorazm viloyat Qo‘shko‘pir tuman Axborot kutubxona markazi, 2025 yil.- 28 b.

UDK 929

Mazkur qo‘llanma buyuk ma’rifatparvar, yozuvchi, publitsist, dramaturg va jamoat arbobi, jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiytavalludining 150 yilligiga bag‘ishlangan. Qo‘llanmadayozuvchining hayoti, ijodiy faoliyati, oilasi, dramaturgiyasi, Ijtimoiy publitsistikasi, xotirasiga bag‘shlab she’rlar, bilimdonlar bellashuvi, kutubxonalarda o‘tkaziladigan tadbirlar turkumi, kitob ko‘rgazmasi uchun mavzular keltirilgan. Keng kitobxonlar ommosiga mo‘ljallangan. Qo‘llanmadan kutubxonachi mutaxassislar va foydalanuvchilar foydalanishlari mumkin.

Kompyuterda tuzuvchi: S. Zarifboyeva

So‘z boshi

Turkiston ijtimoiy-siyosiy harakatining eng yirik namoyandasi, Turkiston jadidlari rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g‘oyasining bayroqdori, yangi maktabchilik nazariyotchisi va amaliyotchisi, o‘zbek dramaturgiyasi asoschisi, noshir Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919-y.) tariximizning g‘oyat og‘ir va murakkab bir davrida yashadi. O‘lkamizni bosib olgan Rossiya imperiyasi uzoq yillar zo‘r berib, uni turg‘un va tutqun saqlashga urinayotgan bir sharoitda Vatanni butunlay yo‘q bo‘lishdan saqlab qolish, avlodlarni ozodlik va mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma‘rifat va taraqqiyotga boshlash Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning izdoshlari zimmasiga tushgandi. Ular Turkistonda “Usuli jadid”, “Usuli savtiya” nomlari bilan shuhrat topgan yangi maktablar tashkil etib, ulardagi o‘qitish tizimini isloh qildi. Xususi maktablar ochib, bolalarga diniy fanlar bilan birga aniq va tabiiy fanlarni o‘qitdi, she‘r va maqolalari hamda sahna asarlari orqali milliy ongni shakllantirish, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini singdirishga urindi.

Mustamlaka oqibatida taraqqiyotdan ortda qolgan mamlakatni, ta‘lim va maorifni isloh qilish, yangilash uchun bel bog‘lagan, “ehtiyoji millat” dardida “bu ketishning oxiri yamondur, o‘qumoq, o‘qutmoq kerakdir...” deya iztirob chekkan, jadidlik g‘oyasining asoschisi Behbudiy bizning baxtli bugunimizdan o‘zining qatl onlariga qadar umid uzmadi. Shu bois, uning butun umri, ijodiy faoliyati hamon yoshlarimizni milliy g‘oya ruhida tarbiyalashda chinakam tarixiy ibrat vazifasini o‘tamoqda. Bugungi kunda Mahmudxo‘ja Behbudiyning qutlug‘ nomi, ibratli hayoti va bebaho ijodi davlatimiz va xalqimizning yuksak e‘tiborida.

Xususan, kuni kecha Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan “Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qaror yosh avlodning intellektual va ma‘naviy salohiyatini oshirish, ularni Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari, chinakam vatanparvar insonlar etib tarbiyalash borasida muhim ahamiyatga ega hujjat bo‘ldi.

Darhaqiqat, davlatimiz rahbarining ushbu qaror orqali ko‘zlagan ezgu maqsadlari mohiyatida ta‘lim tizimi, xalqning bebaho qadriyatlari, o‘chmas madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi mutafakkirlarning hayoti va ijodini o‘rganish, ilmiy merosini tadqiq etish orqali taraqqiyotning yangi bosqichida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar, yangi Renessans to‘lqini esayotgan bu zamin, bu millat aslini anglamoqlik vazifasi mujassamdir. Shuningdek, qarorda belgilangan mutafakkir adibning “Tanlangan asarlar” to‘plami, uning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop kitoblarni nashrga tayyorlash va chop etish hamda Mahmudxo‘ja Behbudiy haqida spektakllar sahnalashtirish, bugungi kunga qadar yaratilgan “Mahmudxo‘ja Behbudiy” kinoseriali va “Xalq yuragi” badiiy-publitsistik filmlarining ommaviy namoyishlarini tashkil qilish vazifalari ijrosi

orqali endilikda yoshlarimiz adibning milliy ozodlik harakati buyuk namoyandasi sifatida olib borgan ilg'or harakati, ilm-fan, ta'lim va tarbiya, adabiyot va san'at, matbuot sohalarini rivojlantirish, jahondagi ilg'or taraqqiyot yutuqlarini o'zlashtirish yo'lida qilgan jasoratini har tomonlama chuqur o'rganadi. Chunki, har bir millatning milliy tarixi, qudrati, salohiyati va kelajagini bilmoq uchun uning adabiyoti va matbuotiga nigoz tashlansa bo'ldi, tarix haqiqatlarini oina kabi namoyon etadi.

Shu bilan birga qarorda umumiy o'rta ta'lim muassasalari, ijod maktablari o'quvchilari, "Temurbeklar maktablari" kursantlari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida "Mahmudxo'ja Behbudiy saboqlari" mavzusida insholar tanlovini o'tkazish va g'oliblarni munosib taqdirlash, barcha bo'g'indagi ta'lim muassasalari, kutubxonalar, mehnat jamoalari, mahallalar va harbiy qismlarda taniqli olimlar va adiblar ishtirokida Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan ijodiy uchrashuvlar, adabiyot va kitobxonlik kechalarini tashkil qilish, zamonaviy raqamli va targ'ibot texnologiyalari asosida Mahmudxo'ja Behbudiy yosh avlod nigozida umuminsoniy madaniyatning jasoratli targ'ibotchisi sifatida qayta gavdalandiradi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

Vatanimiz tarixidagi o‘yat murakkab va sinovli davr bo‘lgan XX asr boshida maydonga chiqqan Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidlik harakatining asoschisi hisoblanadi. U milliy ozodlik harakatining buyuk namoyandasi sifatida ilm-fan, ta‘lim va tarbiya, adabiyot va san‘at, matbuot sohalarini rivojlantirish, jahondagi ilg‘or taraqqiyot yutuqlarini o‘zlashtirish orqali xalqimizning ongu tafakkurini yuksaltirish hamda hurriyatga erishish yo‘lida o‘z hayotini baxsh etgan fidoyi zotdir. Mahmudxo‘ja Behbudiy chor hukumati va mahalliy mutaassib kuchlarning mislsiz qarshiligiga qaramasdan, yurtimizda birinchilar qatorida ilk zamonaviy maktablar tashkil qilish, ular uchun zarur darsliklar yaratish, nashriyot va teatrlar barpo etish ishlariga bosh-qosh bo‘ldi. Mohir publitsist sifatida o‘z davrining dolzarb muammolariga bag‘ishlangan qator salmoqli asarlar va ikki yuzdan ortiq maqolalar yaratdi. Shu bilan birga, “Samarqand” gazetasi hamda “Oyina” jurnaliga asos soldi. 1914-yilda “Turon” teatrida sahnalashtirilgan “Padarkush” pyesasi orqali o‘lkamizda teatr san‘atining tamal toshini qo‘ydi. Afsuski, atoqli adib va jamoat arbobi bo‘lgan bu mutafakkir zot 44 yoshida yovuz kuchlar qurboni bo‘ldi.

Mustaqillik davrida Mahmudxo‘ja Behbudiy xotirasini abadiylashtirish, hayoti va faoliyatini chuqur tadqiq qilish, ilmiy va badiiy asarlarini keng ommalashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Ayniqsa, keyingi yillarda Toshkent shahridagi Adiblar xiyobonida uning muazzam haykali o‘rnatilgani, Samarqand shahrida uy-muzeyi tashkil qilingani mamlakatimiz hayotida katta voqea sifatida e‘tirof etildi. Iste’dodli dramaturglar uchun Mahmudxo‘ja Behbudiy nomidagi mukofot ta‘sis qilingani shu yo‘ldagi yangi amaliy qadam bo‘ldi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarining yosh avlodimiz intellektual va ma‘naviy salohiyatini oshirish, shu asosda ularni Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari, chinakam vatanparvar insonlar etib tarbiyalash borasidagi o‘rni va ahamiyatini inobatga olib hamda uning bebaho merosini yanada kengroq o‘rganish va targ‘ib etish maqsadida:

1. Madaniyat vazirligi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Fanlar akademiyasi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, Yoshlar ishlari agentligi hamda jamoatchilik vakillarining 2025-yilda Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi takliflari ma‘qullansin.

2. Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini nishonlash bo‘yicha tashkiliy qo‘mita (keyingi o‘rinlarda – Tashkiliy qo‘mita) ilovaga muvofiq tarkibda tuzilsin.

3. Tashkiliy qo‘mita (A. Aripov) ikki hafta muddatda Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini nishonlash bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturini tasdiqlasin.

Ushbu dasturda quyidagi masalalarga alohida e‘tibor qaratilsin:

mutafakkir adibning “Tanlangan asarlar” to‘plami, uning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop kitoblarni nashrga tayyorlash va chop etish;

Mahmudxo‘ja Behbudiy haqida spektakllar sahnalashtirish hamda bugungi kunga qadar yaratilgan “Mahmudxo‘ja Behbudiy” kinoseriali va “Xalq yuragi” badiiy-publitsistik filmlarining ommaviy namoyishlarini tashkil qilish;

Badiiy akademiyaning Markaziy ko'rgazmalar zalida Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodi, shuningdek, Turkiston jadidlik harakati namoyandalarining faoliyatiga oid tasviriy san'at asarlari ko'rgazmasini uyushtirish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalari, ijod maktablari o'quvchilari, "Temurbeklar maktablari" kursantlari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida "Mahmudxo'ja Behbudiy saboqlari" mavzusida insholar tanlovini o'tkazish va g'oliblarni munosib taqdirlash;

barcha bo'g'indagi ta'lim muassasalari, kutubxonalar, mehnat jamoalari, mahallalar va harbiy qismlarda taniqli olimlar va adiblar ishtirokida Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan ijodiy uchrashuvlar, adabiyot va kitobxonlik kechalarini tashkil qilish;

zamonaviy raqamli va targ'ibot texnologiyalari asosida Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarini yoshlar o'rtasida keng ommalashtirish;

2025-yil oktyabr oyida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida "Mahmudxo'ja Behbudiy merosi va jadidlik harakatini o'rganishning dolzarb masalalari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil qilish;

2025-yil noyabr oyida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatrida Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga bag'ishlangan tantanali adabiy-ma'rifiy xotira kechasini o'tkazish;

Samarqand shahridagi Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyi hududini obodonlashtirish hamda muzey ekspozitsiyasini boyitish;

Qarshi shahridagi ko'chalardan biriga Mahmudxo'ja Behbudiy nomini berish hamda unga bag'ishlangan yodgorlik lavhasini o'rnatish;

Internet va ijtimoiy tarmoqlar uchun mo'ljallangan audiovizual asarlar yaratish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida turkum materiallarni e'lon qilish.

Tashkiliy qo'mitaga Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini nishonlash doirasida o'tkaziladigan tadbirlarni yuksak saviyada uyushtirish, mazkur qarorga asosan belgilangan chora-tadbirlarning o'z vaqtida, sifatli va to'liq amalga oshirilishini muvofiqlashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

4. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi, O'zbekiston Milliy media birlashmasi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini nishonlash bilan bog'liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Belgilansinki, mazkur qarorda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar tashkilotchilarga Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida, ularning budjetdan tashqari mablag'lari hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari O.Q. Abduraxmanov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev

Hayoti

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yil 20-yanvarda Samarqand yaqinidagi Siyob volostining Baxshitepa qishlog‘ida imom-xatib Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li xonadonida tug‘ilgan. Otasi Ahmad Yassaviy avlodidan. Otasining buvasi Niyozxo‘janing asli kelib chiqishi urganchlik bo‘lib, Samarqandga XVIII asr oxirida, amir Shohmurod hukmronlik davrida ko‘chib kelgan^[1]. 1868-yilda rus askarlari Samarqandga bostirib kirgandan keyin otasi Behbudxo‘ja oilasini olib Baxshitepa qishlog‘iga ko‘chib o‘tgan va shu qishloqda imomlik qilgan. Behbudiyning onasi esa muftiy Odil Mansur o‘g‘lining singlisi bo‘lgan.

Behbudiy dastlab otasidan Qur‘on ilmini o‘rgangan, keyinchalik 6-7 yoshlarida tog‘asi Muhammad Siddiq qo‘lida o‘qib, savod chiqargan. 15 yoshida boshqa bir tog‘asi Mulla Odil o‘zi mudarrislik qilgan madrasada o‘qitib ta‘lim bergan^[2].

Behbudiyilar oilasi ma‘rifatparvar va ziyoli bo‘lgan. Ikki singlisi ham o‘qib, tahsil olgan. Qur‘onni yaxshi bilgan. Katta singlisi Huriniso „qoribegim“ unvoniga ega bo‘lgan^{[3][4]}. 1893-yilda onasi, 1894-yilda otasi vafot etgan.

Behbudiy 18 yoshida Chashmai ob volostida qozi vazifasida ishlagan tog‘asi Muhammad Siddiq qo‘l ostida mirzalik qilgan. Tog‘asi oldida ikki yil ishlagach, mirzalik faoliyatini Kobud volosti qozisi Mulla Zubayr Yaxshiboy o‘g‘li qo‘lida davom ettiradi. Chunki bu paytda tog‘asi qozilikdan bo‘shatilgan. Mirza va qozilik bilan shug‘ullanib, so‘ng Jomboyda muftiylik darajasiga ko‘tarilgan. Behbudiy Kabut bo‘lisida 10 desyatina yerga egalik qilgan^[5]. O‘ziga to‘q va badavlat kishidir.

Behbudiy 1899–1900-yillarda buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan birga Makka va Madinada haj safariga otlangan. Shu sababli Rossiya, Arabiston, Misr, Turkiyani kezib chiqqan. Safar jarayonida sayohatning har qanday turi – poyezd, kema, otda va piyoda yurib dunyo kezgan. Sayohat davomida yangi maktab (usuli jadid) ochish fikri mustahkamlanib bordi. 1914-yili ikkinchi marta haj safari chog‘ida Shom, Quddus, Odessa, Istanbul va boshqa shaharlarni kezgan. O‘z sayohati davridagi xotiralarini Samarqandda nashr etilayotgan Oyna jurnalining tahririyatiga yuborib turgan.

1903–1904-yillarda Moskva, Peterburg, Orenburg, Qozon va Qrimda bo‘lgan. Maorif sohasida Rossiya va tatar arboblari tajribasini o‘rgangan. Mahmudxo‘ja Behbudiy Ismoil Gaspirinskiy bilan birinchi marta 1897-yilda Gaspirinskiyning Turkistonga sayohati vaqtida Samarqandda tanishgan. Ismoil Gaspirinskiy bilan uchrashuvi keyingi hayotiga ta‘sir katta ko‘rsatdi. Ismoilbey va Behbudiyning ikkinchi uchrashuvi 1914-yilning yozida yuz bergan. Alloma marg‘ilonlik bir kishi bilan Istanbulning G lhane bog‘ida yurganda tasodifan Ismoil Gaspirinskiyni ko‘rgan va o‘xshatgan bo‘lsam kerak degan o‘y bilan salom berib o‘tib ketgan. Orqasidan javob ovozi kelgach, ikki do‘st yaqindan ko‘rishgan. Gaspirinskiyning taklifi bilan Shahin posho mehmonxonasida yiz bergan suhbat yetti soat davom etgan^[6]. Gaspirinskiy suhbat yakunida Behbudiyini Qrimga taklif etadi^[7]. Oradan ko‘p o‘tmay Ismoilbey vafot etgan va Istanbuldagi uchrashuv ularning eng so‘nggi qarshilashishi bo‘lgan.

Faoliyati

Behbudiy 1903-yilda Samarqandning Jomboy tumaniga qarashli Rajabamin qishlog'ida „usuli savtiya“ maktabini ochadi. Bu maktab Abduqodir Shakuriy xonadonida tashkil etilgan. Maktab o'quvchilarining katta qismi shahardan bo'lganligi va Rajabamin qishlog'iga qatnash qiyinligi sababli keyinchalik bu maktabni Behbudiy o'zining hovlisiga ko'chiradi. Shu davrda u maktab o'quvchilari uchun bir qancha darsliklar yaratgan^[8]. 1904-yilda „Risolayi asbobi savod“ („Savod chiqarish kitobi“), 1905-yilda „Risolayi jug'rofiyayi umroniy“ („Aholi geografiyasiga kirish“), 1906-yilda „Muntaxabi jug'rofiyai umumiy“ („Qisqacha umumiy geografiya“), 1908-yilda „Kitobatul atfol“ („Bolalar xati“), 1908-yilda „Amaliyoti islom“, 1909-yilda „Tarixi islom“ kitoblarini nashr ettirgan. „Muntaxabi jug'rofiyai umumiy“ning to'liq nomi „Kitobi muntaxabi jug'rofiyai umumiy va namunai jug'rofiya“ bo'lib, uni chop etish uchun 1905-yilning 24-avgustida Sankt-Peterburg senzurasidan ruxsat olingan. Shundan so'ng 1906-yili Samarqanddagi G. I. Demurov matbaasida bosilgan. sahifalari soni 106 ta. Muallif ushbu „qadim fan“ga tegishli „turkiy, forsiy, arabiy, rusiy lug'atlarga tasnif bo'lgan o'ttiz qadar qadim va jadid qutub va rasoili jug'rofiya, tarixiy, hay'ati riyoziy, tabiiy“lardan va yana juda ko'p turli xildagi manbalardan foydalangan holda yozganini qayd etgan^[9].

1907-yil 23-avgustda Nijniy Novgorodda Rusiya musulmonlarining madaniyat va turmush muammolariga bag'ishlangan qurultoyi chaqirilgan^[10]. Qurultoyda Behbudiy turkistonliklar guruhini boshqargan va nutq so'zlagan^[11]. Shu yili Behbudiy Rossiya 3-Davlat Dumasining Musulmon fraksiyasiga „Turkiston madaniy muxtoriyati“ loyihasini ko'rib chiqish uchun jo'natgan. Behbudiy loyihada Davlat dumasiga Turkiston musulmon aholisining nufuziga mos vakillar saylanishi, diniy idoraviy ishlarda erkinlikni, Turkistondagi mahalliydan tortib har qanday darajadagi boshqaruvda mahalliy xalq vakillarining ishtirok etishini ta'minlash, turkistonlik xalqlar uchun majburiy hamda bepul umumta'limni joriy qilish, mahalliy aholi roziligisiz Turkistonga Rusiyaning turli hududlaridan aholi ko'chirilishini to'xtatish, rus istilosi natijasida tortib olingan vaqf mulklarini qaytarish singari qat'iy talablarni ilgari surgan. Loyihada yozilgan ism-sharifi hamda mansabi ostiga o'z muhrini ham bosgan^[12]. Biroq, uning bu loyihasi 3-Davlat Dumasi tomonidan e'tiborsiz qoldiriladi^[8].

Behbudiy 1913-yildan boshlab matbuot ishlari bilan shug'ullangan. Shu yilning aprelida „Samarqand“ gazetasiga asos solgan. Gazeta ikki tilda: o'zbek va tojik tillarida, haftada 2-marta chop etilgan. Dastlab ikki sahifada bo'lgan gazeta 3-8-sonlarida sahifalari soni to'rttaga yetkazilgan. 400-600 nusxada chop etilgan. 45-soni chiqqach, chor hukumatining tazyiqi hamda moddiy qiyinchiliklar tufayli nashr to'xtagan^[13]. Shu yilning 20-avgustidan „Oyna“ jurnali chiqara boshlagan. Haftalik nashrdan chiqqan bu jurnal asosan o'zbekcha bo'lib, maqola (forscha), she'r, e'lonlar (ruscha) ham berib borilgan. Sahifalarida illustratsiyalardan foydalanilgan.

Jurnal Tatariston, Eron, Kavkaz, Afg'oniston, Turkiya, Hindistongacha tarqalgan. „Oyna“ jurnalining sohasi keng qamrovli bo'lib, unda millatning tarixi, haq-huquqi, adabiyot hamda til masalalari, jahondagi ahvol to'g'risida maqola va munozaralar berib borilgan. Jurnal faoliyati 20 oy davom etgan. Shu davr mobaynida 68 soni nashr etilgan. Behbudiy kitob nashrini ham yo'lga qo'ygan. A. V. Pyakovskiy 1913-yili Behbudiy bosmaxonasida Firatning „Bayonoti sayyohi hindi“ asarini rus tiliga tarjima qilib, nashr etgan^[10]. Turli xildagi darslik hamda qo'llanmalardan tashqari nashriyotda „Turkiston, Buxoro va Xivaning xaritasi“ni bosib chiqargan^[14]. 1917-yili

alloma safdoshlari – Fitrat, Ayniy, Ajziy, Muhammadquli O‘rinboyev, A. Shomansur bilan birgalikda „Hurriyat“ ro‘znomasini, „Zarafshon“ shirkatini hamda „Nashri maorif“ni tashkil etgan^[15].

Behbudiy 1917-yilning 16-23-aprelida Toshkentda bo‘lib o‘tgan Turkiston musulmonlarining 150 nafar vakili qatnashgan qurultoyda ishtirok etib, nutq so‘zlagan. Nutqida musulmonlar orasidagi har qanday ixtiloflarga qarshi chiqqan. Ulug‘ maqsad yo‘lida birlashishga chorlagan. Shunday kelishmovchiliklar tufayli „mustamlakot qoidasi ila bizni idora eturlar“ deb ochiq so‘zlagan^[10]. 1917-yilning 17-martida qabul qilingan Buxoro amirligida amir boshchiligida islohotlar o‘tkazish talabi to‘g‘risidagi manifest mualliflaridan biri bo‘lgan^[16]. Behbudiy shu qurultoyda o‘lka musulmonlar sho‘rosining raisi etib saylangan.

1917-yil 26-noyabrda Behbudiy Qo‘qonda ish boshlagan o‘lka musulmonlarining 4-favqulodda qurultoyida qatnashgan. 27-noyabrga o‘tar kechasi "Turkiston muxtoriyati" e‘lon qilindi. Uning g‘oyaviy rahbarlari biri Behbudiy bo‘lgan. Muxtoriyat sho‘rolar tomonidan vahshiyona bostirildi. Behbudiy may oyining boshlarida Samarqandga qaytadi. U yerda ko‘p tura olmay Toshkentga keladi.

Bu davrda jadidlar va milliy ziyolilar oldida uch tanlov mavjud bo‘lgan: birinchisi: xorijiy davlatga chiqib ketish, ikkinchisi: qo‘lida qurol bilan o‘z fikr va g‘oyalarini himoya qilish, uchinchisi: yangi tuzilgan hukumat bilan murosa yo‘liga kirib, xalq taraqqiyoti, ma‘rifati yo‘lida xizmat qilish bo‘lgan. Turkiston jadidlarining yetakchisi bo‘lgan Behbudiy xalq orasida katta obro‘-e‘tiborga ega bo‘lgan. Yangi tuzilgan hukumat ham buni yaxshi tushungan. Shu sababdan alloma yangi hukumat tarkibida milliy masalalar bo‘yicha komissariat organlarida ishlashga rozilik beradi. Komissariatning turkiy millat masalalari bo‘limini boshqarish vazifasida faoliyat yuritgan. Hujjatni mutafakkir Toshxo‘ja Ashurxo‘ja imzolagan^[17]. Behbudiyning oylik maoshi 700 rubl etib belgilangan. Komissar o‘rinbosari sifatida Behbudiy hududdagi ma‘naviy hamda ma‘rifiy ishlarga mas‘ul bo‘lgan. Shu davrda uning tashabbusi bilan „Ishtirokiyun“ („Kommunist“) gazetasi nashr qilingan. Behbudiy nashr bosh muharriri vazifasiga Orif Klivliyevni tayinlagan^[17].

Behbudiy 1918-yillari siyosatda faol bo‘lgan. Arxiv hujjatlaridan olingan ma‘lumotlarga qaraganda, 1918-yilning yozida Toshkentga borib Turkiston hukumatining Qurultoyida qatnashgan. Shuningdek, ocharchilikka barham berish va oziq-ovqat muammosini bartaraf qilishga oid maqolalarni e‘lon qilgan. Partiya va ijro organlarining mutasaddi rahbarlari bilan uchrashgan^[17].

Kuz oylariga kelib Behbudiy sovetlar va kommunistlar olib borayotgan siyosat mafkurasi noto‘g‘ri yo‘nalishdaligini anglab yetgan. Bu mafkura mahalliy xalqlar uchun zararli degan qarorga kelgan. Natijada 1918-yilning oktyabr-noyabr oylariga kelib vazifasidan ketishga qaror qilgan. Hujjatlarda ko‘rsatilishicha, Turkiston komissarlar soveti raisi Malkovning imzosi bilan Mahmudxo‘ja Behbudiy raislik qilgan sektor tarqatib yuborilgan. 1918-yilning 5-noyabridan boshlab sektor a‘zolariga taqdim qilingan tashviqot va targ‘ibot olib borish huquqini beruvchi hujjatlar bekor qilingan. Behbudiy ham tashkilotni tark etgan. Ilmiy tadqiqotchilar fikricha Behbudiy shundan keyin haj safariga otlangan.

Dramaturgiya

Behbudiy ijodiy faoliyati davomida ikki pyesa yozgan. Biri nashr etilmagan^[16]. 1911-yili birinchi o‘zbek dramasi bo‘lgan „Padarkush yoxud O‘qimagan bolaning holi“ asarini yozgan. Yozuvchi asar sarlavhasidan so‘ng qavs ichida janr va mavzusini „Turkiston maishatidan olingan ibratnoma“ deb keltirgan. 3 parda 4 manzarali mazmunan sodda asarda o‘qimagan, nodon va johil bolaning o‘z otasini o‘ldirgani haqida bayon etilgan. Asarning ilk qismlari Buxoroda

chiqayotgan „Turon“ gazetasining 1913-yil 1- va 3-yanvar sonlarida bosilgan. Biroq gazeta yopilishi natijasida so‘nggi qismlari nashr etilmagan. „Padarkush“ asari Samarqand harbiy gubernatori, general-mayor Ilya Oleshildzening ko‘magi va „matbuot ishlari Tiflis qo‘mitasi“ning 1913-yil 23-iyul sanali ruxsati bilan Samarqanddagi Gazarov va Siyanov matbaasida bosilib chiqqan^[18]. Kitob muqovasiga „Borodino“ jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining yubileyiga bag‘ishlanadi“ degan yozuv qayd etilgan. Pyesa sahnaga chiqishi uchun yana bir yilcha vaqt ketgan. Asar 1914-yilning 15-yanvarida Samarqandda ozarbayjonlik rejissyori Ali Asqarov tomonidan „Qiroatxonai islomiya“ („Islom qiroatxonasi“) kutubxonalar zalida namoyish qilingan. 1914-yil 27-fevralda Abdulla Avloniy boshchiligida Toshkentda „Turon“ teatr truppasi tomonidan Kolizey maydonida qaytadan sahnalashtirilgan^[19].

Toshkentdagi namoyish oldidan Munavvarqori Abdurashidxonov teatrning jamiyat oldidagi o‘rni va roli haqida nutq so‘zlagan. Boy rolini Abdulla Avloniyning o‘zi ijro etgan. „Turon“ teatr truppasi 1914—1916-yillarda „Padarkush“ spektaklini butun Farg‘ona vodiysida namoyish etgan^[20].

Drama 7-mayda ikkinchi marta sahnaga taqdim etilgan. „Oyna“ jurnalida yozilishicha ikkinchi namoyishda biletlar sotuvidan 384 so‘m 50 tiyin mablag‘ tushgan. Ushbu pulning 184 so‘m 50 tiyini spektaklning xarajatiga sarflangan. Ortgan 200 so‘mdan 110 so‘m qismi maktab islohi uchun, 15 so‘mi Buxoriy qishlog‘ida joylashgan mulla Jo‘raboy ochgan maktabga, 35 so‘mi Jomboy tumanidagi Bozoramin Hodixo‘ja tashkil qilgan va muallim mulla Komil idorasidagi maktabga, 35 so‘mi Abduqodir Shakuriy maktabiga, qolgan 15 so‘mi esa „gorodskoy uchilishche“da o‘qitilayotgan musulmon bolalarga bo‘lib berilgan^[21].

Behbudiy roziligi bilan „Padarkush“ spektakli 1914-yil 5-martda Buxoroning „Turkiston“ saroyida Husayn Najib rahbarligida tatar san’atkorlari tomonidan sahnaga qo‘yilgan^[22].

„Inqilob“ jurnalining 1922-yilda nashrdan chiqqan sonlarining birida B. A. Pyakovskiy „O‘zbek teatri tarixi“ nomli maqola e‘lon qiladi. Maqolada teatrning vujudga kelishi haqida fikr yuritib „O‘zbek teatrining asosini qo‘yib beruvchi samarqandlik Mahmudxo‘ja Behbudiydir“ deb yozgan^[23].

Ijtimoiy publitsistika

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining publitsistik faoliyatini 1902-yilda Turkistonda mahalliy tilda nashrdan chiqqan rasmiy „Turkiston viloyatining gazetasi“dan boshlagan. Gasprinskiy 1904-yilda bo‘lib o‘tgan rus-yapon urushi munosabati bilan „Tarjimon“ gazetasida musulmonlarni ushbu urushda qatnashayotgan rus hamda musulmon askarlariga yordam ko‘rinishida pul, kiyim-kechak, oziq-ovqat to‘plab jo‘natishga da’vat qilib bir qancha maqola yozgan. Behbudiy ham aynan shu mavzuda „Turkiston viloyatining gazetasi“ ro‘znomasida kichik maqola e‘lon qilgan. Maqolada Behbudiy Turkiston aholisiga musulmonlar nima uchun rus askarlariga hamda podsho hokimiyatiga yordam berishlari sababini tushuntiradi. Yozuvchi o‘z so‘zlarining isboti ko‘rinishida „gazetlarda yozilib“ turgan „Qrim tarafidagi ba’zi shaharliklar“ mablag‘ va kiyim yig‘ib yuborganliklari hodisasini misol tariqasi keltiradi. Behbudiy „gazetalar“ deganida aynan „Tarjimon“ gazetasini nazarda tutgan va „Tarjimon“da berilgan ma’lumotlardan foydalangan^[24].

„Oyna“ jurnalining ilk sonidayoq Behbudiy „Ikki emas, to‘rt til lozim“ nomli maqolasini e‘lon qilib, o‘zbek, arab, tojik, rus va hatto biror uzoq xorij (masalan, fransuz) tilini bilish shart deya murojaat qilgan. Hurriyat gazetasida e‘lon qilingan „Haq olinur, berilmas“ maqolasida mustaqillikka faqat qo‘lga qurol olib erishish mumkinligini bayon qilgan. „Qozoq

qarindoshlarimizg'a ochiq xat" maqolasida turli ixtiloflar ichidagi qozoq xalqini birlikka chaqiradi.

Ayni paytda tilning muhofazasi („Har millat o'z tili ila faxr etar“ –1914, № 35), o'zaro munosabatlari („Til masalasi“ – 1915, № 11,12) haqida muhim va zarur maqolalar chop etdi. Adabiy tanqidga jiddiy e'tibor qilgan. Shuningdek, teng huquqlik masalasini ham ko'targan („Tanqid saralamoqdir“ – 1914, № 27). Millat sha'nini oyoqosti qiluvchi fikr va qarashlarni rad etib, Turkiston xalqini o'z nomi bilan atash kerakligini talab qilib chiqqan.

1913-yili yozilgan „Ehtiyoji millat“ maqolasida 30 yil muqaddam Samarqand hududidagi bitta Yomoni mahallasining o'zida 300 alochabof ishchi bo'lgani ta'kidlangan. Ayni paytda ulardan bor-yo'g'i 30 kishi qolgani va yana 10 yildan so'ng qolgani ham tugab ketishi xavfi borligi qayd etilgan. „Bu ketishning oxiri yomondur, o'qimoq va o'qitmoq kerakdur. Otalardan bolalarga ilmi diniy va ilmi zamonaviy meros qolsun“ deydi alloma^[25].

Behbudiy o'zbek matbuoti tarixida maqolanavis sifatida o'z o'rniga ega^[26]. Uning hozirgacha aniqlangan maqolalarining soni 300 ga yetadi^[27]. Ular turli xil mavzuda. Ilk maqolalaridan boshlab kommunistik mafkurani rad etgan, „xayoliy“, „bu toifaga qo'shulmoq biz, musulmonlar uchun nihoyatda zararlik“ deb yozgan edi („Xayrul umuri avsatuho“ – „Ishlarning yaxshisi o'rtachasidir“, „Xurshid“ gazetasi 1906-yil, 6-son). O'zlikni anglashni muhim biladi. "Qabilasini(ng) ismini va yetti otasining otini bilmaydurgonlarni "qulq „marquq“ derlar", deb yozadi („Sart so'zi majhuldur“, „Oyna“ jurnali, 1914, № 23). 1917-yilning oxiri 1918-yilning boshlarida jadidlar qurgan ilk demokratik davlatchilik namunasi Turkiston muxtoriyatining taqdiri hal bo'layotgan bir paytda o'lka xalqlarini birlikka chaqiradi

Behbudiya kutubxonasi

Behbudiya kutubxonasi	
Tip	Jamoat kutubxonasi
Mamlakat	O'zbekiston
Manzil	Yangi rasta, <u>Samarqand</u>
Tarixi	
Asoschisi	<u>Mahmudxo'ja</u> <u>Behbudi</u>
Asos solingan sanasi	<u>1908-yil 11-sentyabr</u>
Tugatilgan sanasi	<u>1914-yil</u>
Fond	
Kitoblar soni	1500
Xizmat ko'rsatishi	
Obunachilar soni	125

Mahmudxo'ja Behbudi tomonidan Samarqandda kutubxona tashkil etilgan. Kutubxona 1908—1914-yillarda faoliyat yuritgan.

Behbudiyning ijobiy ishlaridan biri „Behbudiya“ kutubxonasining tashkil etilishi bo'ldi. Behbudi birinchilardan bo'lib Samarqandda kutubxona faoliyatini yo'lga qo'ygan. 1908-yil 11-sentabrda Samarqand hokimining rasmiy ruxsati bilan ushbu kutubxona „Yangi rasta“da ochilgan^[4]. Biroq kutubxonaning ochilishi haqidagi xabar biroz avval chop etilgan. Bu haqda „Turkiston viloyatining gazetasi“da xabar berilgan. 27 bobdan iborat bo'lgan dastur kutubxonaning barcha rasmiy masalalarini belgilab bergan. Kutubxonaga yillik a'zolik badali 3 so'mni tashkil etgan^{[5][6]}. Kutubxonaning asosiy maqsadi mahalliy musulmon yoshlari va madrasa talabalarini zamonaviy ilmlar bilan shug'ullanishga undash bo'lgan.

Kutubxona faoliyatida Mahmudxo'ja Behbudiya jadid ma'rifatparvarlari Hoji Muin, Vasliy Samarqandiy va pedagog Abduqodir Shakuriylar yordam berib borgan. Ayni paytda kutubxona tuzilish jihatdan xilma-xil va boy fondga ega bo'lgan. Chet el davlatlarda nashrdan chiqqan dunyoviy va diniy kitoblar, suratli jurnallar hamda gazetalar, ensiklopediya, lug'atlar, xarita va atlaslardan o'qib foydalanish mumkin bo'lgan. Kutubxonadagi kitoblar fondi dastlab 200, keyinroq 225 jildga yetgan. Kutubxona kunlik 14 soat davomida faoliyat olib borgan. Ochilishidan 7 oy o'tib, a'zolari soni 125 kishiga yetgan. 1910-yillarga kelganda faoliyati susaya boshlagan. Bunga avvalo o'lkadagi jadidlar va qadimchilar qaram-qarshiligi sabab bo'lgan. Mullalar ota-onalar bilan suhbatlashib, kofirxona sifatida u yerga borishni taqiqlab qo'yishgan. 1912-yilda sanoqli kishi kutubxonadan foydalangan. 1914-yilga kelib moliyaviy qiyinchiliklar boshlanadi. 15 a'zodan iborat yillik yig'ilish paytida kutubxonani saqlab qolish va iqtisodiy muammoni hal etish maqsadida spektakl qo'yishga kelishib olinadi^[7]. Teatr tomoshalari ham qadimchilar tomonidan rad etilgach, Kutubxona faoliyati tugaydi. Behbudi kutubxonani o'zining uyiga ko'chiradi va uni Behbudiya kutubxonasi deb

nomlaydi. Keyinchalik u yerda chet elda nashr qilingan kitoblarni sotishni ham yo'lga qo'yadi va ularning ro'yxati Oyna jurnalida e'lon qilib boriladi^{[8][9]}.

Mahmudxo'ja Behbudi qatl etilganidan so'ng kutubxona taqdiri bilan qiziquvchi hech kim topilmagan. „Turkiston“ gazetasida keltirilgan „Samarqanda Behbudi kutubxonasi“ maqolasida

keltirilishicha, kutubxonadan mas'ul ishchilar ham xabar olmay qo'ygan va 1500 dan ortiq (659 dona musulmoncha, 923 dona ruscha) kitoblar ahvoli noma'lumligicha qolgan^[10].

M.Behbudiyy uy-muzeyining ochilish afishasi



Behbudiyyning yurt obodligi yo'lida boshlagan ijobiy ishlaridan biri „Behbudiya“ kutubxonasining tashkil etilishi bo'ldi. Behbudiyy birinchilardan bo'lib Samarqandda kutubxona faoliyatini yo'lga qo'ygan^{[28][29]}. 1908-yil 11-sentabrda Samarqand hokimining rasmiy ruxsati bilan ushbu kutubxona „Yangi rasta“da ochilgan^[30]. Biroq kutubxonaning ochilishi haqidagi xabar biroz avval chop etilgan. Bu haqda „Turkiston viloyatining gazetasi“da xabar berilgan edi. 27 bobdan iborat bo'lgan dastur kutubxonaning barcha rasmiy masalalarini belgilab bergan. Kutubxonaga yillik a'zolik badali 3 so'mni tashkil etgan^[31]. Kutubxonaning asosiy maqsadi mahalliy musulmon yoshlari va madrasa talabalarini zamonaviy ilmlar bilan shug'ullanishga undash bo'lgan.

Kutubxona faoliyatida Mahmudxo'ja Behbudiyyga jadid ma'rifatparvarlari Hoji Muin, Vasliy Samarqandiy va pedagog Abduqodir Shakuriy yordam bergan. Tuzilish

jiyatdan xilma-xil va boy fondga ega bo'lgan. Chet el davlatlarda nashrdan chiqqan dunyoviy va diniy kitoblar, suratli jurnallar hamda gazetalar, ensiklopediya, lug'atlar, xarita va atlaslardan o'qib foydalanish mumkin bo'lgan. Kutubxonadagi kitoblar fondi dastlab 200, keyinroq 225 jildga yetgan. Kunda 14 soat davomida ishlagan. Ochilishidan 7 oy o'tib, a'zolari soni 125 kishiga yetgan. 1910-yillarga kelganda faoliyati so'na boshladi. Bunga avvalo o'lkadagi jadidlar va qadimchilar qarama-qarshiligi sabab bo'lgan. Mullalar ota-onalar bilan suhbatlashib, kofirxona sifatida u yerga borishni taqiqlab qo'yadi. 1912-yilda sanoqli kishi kutubxonadan foydalangan. 1914-yildan moliyaviy qiyinchiliklar boshlanadi. 15 a'zodan iborat yillik yig'ilish paytida kutubxonani saqlab qolish va iqtisodiy muammoni hal etish maqsadida spektakl qo'yishga kelishib olinadi^[32]. Teatr tomoshalari ham qadimchilar tomonidan rad etilgach, Kutubxona faoliyati tugaydi. Kutubxona 1908—1914-yillarda faoliyat yuritgan. Behbudiyy kutubxonani o'zining uyiga ko'chiradi va Behbudiya kutubxonasi deb nomlaydi. Keyinchalik u yerda chet elda nashr qilingan kitoblarni sotishni ham yo'lga qo'yadi va ularning ro'yxati "Oyna" jurnalida e'lon qilib boriladi^[33].

M.Behbudiy uy-muzeyi



Noshirlik dastgohi.

M.Behbudiy uy-muzeyining ochilish afishasi

Behbudiyning yurt obodligi yo'lida boshlagan ijobiy ishlaridan biri „Behbudiya“ kutubxonasining tashkil etilishi bo'ldi. Behbudiy birinchilardan bo'lib Samarqandda kutubxona faoliyatini yo'lga qo'ygan^{[28][29]}. 1908-yil 11-sentabrda Samarqand hokimining rasmiy ruxsati bilan ushbu kutubxona „Yangi rasta“da ochilgan^[30]. Biroq kutubxonaning ochilishi haqidagi xabar biroz avval chop etilgan. Bu haqda „Turkiston viloyatining gazetasi“da xabar berilgan edi. 27 bobdan iborat bo'lgan dastur kutubxonaning barcha rasmiy masalalarini belgilab bergan. Kutubxonaga yillik a'zolik badali 3 so'mni tashkil etgan^[31]. Kutubxonaning asosiy maqsadi mahalliy musulmon yoshlari va madrasa talabalarini zamonaviy ilmlar bilan shug'ullanishga undash bo'lgan.

Kutubxona faoliyatida Mahmudxo'ja Behbudiyga jadid ma'rifatparvarlari Hoji Muin, Vasliy Samarqandiy va pedagog Abduqodir Shakuriy yordam bergan. Tuzilish jihatdan xilma-xil va boy fondga ega bo'lgan. Chet el davlatlarda nashrdan chiqqan dunyoviy va diniy kitoblar, suratli jurnallar hamda gazetalar, ensiklopediya, lug'atlar, xarita va atlaslardan o'qib foydalanish mumkin bo'lgan. Kutubxonadagi kitoblar fondi dastlab 200, keyinroq 225 jildga yetgan. Kunda 14 soat davomida ishlagan. Ochilishidan 7 oy o'tib, a'zolari soni 125 kishiga yetgan. 1910-yillarga kelganda faoliyati so'na boshladi. Bunga avvalo o'lkadagi jadidlar va qadimchilar qarama-qarshiligi sabab bo'lgan. Mullalar ota-onalar bilan suhbatlashib, kofirxona sifatida u yerga borishni taqiqlab qo'yadi. 1912-yilda sanoqli kishi kutubxonadan foydalangan. 1914-yildan moliyaviy qiyinchiliklar boshlanadi. 15 a'zodan iborat yillik yig'ilish paytida kutubxonani saqlab qolish va iqtisodiy muammoni hal etish maqsadida spektakl qo'yishga kelishib olinadi^[32]. Teatr tomoshalari ham qadimchilar tomonidan rad etilgach, Kutubxona faoliyati tugaydi. Kutubxona 1908—1914-yillarda faoliyat yuritgan. Behbudiy kutubxonani o'zining uyiga ko'chiradi va Behbudiya kutubxonasi deb nomlaydi. Keyinchalik u yerda chet elda nashr qilingan kitoblarni sotishni ham yo'lga qo'yadi va ularning ro'yxati "Oyna" jurnalida e'lon qilib boriladi^[33].

Oilasi

Mahmudxo'ja Behbudiy 1893-yilda uylanib, to'rt o'g'il hamda bir qiz farzand ko'rgan.

Katta o'g'liga Ma'sudxon deb ism qo'ygan, u 1897-yili tug'ilgan. Mas'udxon ham eski maktabda, ham gimnaziyada tahsil olgan. Ulg'aygach ro'znoma hamda nashriyotlarda tarjimon vazifasida ishlagan. 1933-yilda qatag'on to'lqini natijasida otasi Mahmudxo'ja Behbudiy „xalq dushmani“ deb e'lon qilinadi. Ma'sudxon shundan so'ng ta'qibga uchrab Tojikistonga ko'chib o'tishga majbur bo'ladi. O'sha yerda yashirin ravishda ijod bilan shug'ullangan. 1937-yilda o'rta maktab o'quvchilari uchun adabiyot bo'yicha ikki darslik hamda ikkita darslik xrestomatiyasini yozib nashr ettirgan^[38].

Ikkinchi farzandi Maqsudxon 1911-yili tug'ilgan. Dastlab „usuli jadid“ maktabida o'qigan. Keyin Bokuda joylashgan muallimlar tayyorlash kursida ikki yillik tahsilni tamomlagan. 1932-yili 21 yoshida vafot etgan^[38].

Qizi Parvinaxon (Surayyoxon ham deyishgan) 1902-yili tug'ilgan. 10 yoshigacha Abduqodir Shakuriy tashkil qilgan „usuli jadid“ maktabida o'qigan. Keyinchalik Parvina asosan uyda tahsilni davom ettirib, muallimlardan fransuz va rus tillaridan saboq olgan. Ikki qizi yoshlik chog'ida vafot etgan. O'zi xalq dushmanining qizi tamg'asi ostida kun kechirgan. 1987-yili vafot etgan^[38].

To'rtinchi farzandi Matlubxon 1914-yili tug'ilgan. 1942-yilda Ikkinchi jahon urushiga safarbar qilingan. Urush davrida bedarak yo'qolgan^[38].

Vafoti

1919-yilda Favqulodda komissiya ayg'oqchilari ko'magi bilan Shahrisabz bekligida Mahmudxo'ja Behbudiy va hamrohlari Muhammadquli O'rinboyev, Mardonquli Shomammedovlar qo'lga olingan. Taxminan ikki oycha vaqt o'tib, Qarshiga olib kelinib zindonga tashlangan. Qarshi begi Tog'aybekning buyrug'i bilan bir necha kundan keyin Nuriddinxo'ja Og'aliq Ahmadxo'ja o'g'li tomonidan zindon yaqinid joylashgan „podsholik chorbog'i“da qatl ettirilgan^[34].

Allomaning qatl etilgani haqidagi xabar o'sha paytdagi poytaxt Samarqandga rosa bir yildan keyin yetib keladi^[35]. Behbudiyning o'limiga bag'ishlab Abdurauf Fitrat „Behbudiyning sag'anasin izladim“ she'rini, Sadriddin Ayniy „Behbudiy Afandini esga tushirib, qatl va qatlgohga xitoban“, „Behbudiy ruhiga ithof“ va Cho'lpon „Mahmudxo'ja Behbudiy xotirasiga“ nomli marsiyalarini yozgan^[36]. Behbudiy o'limi arafasida izdoshlariga vasiyatnoma yozib qoldirgani manbalardan ma'lum. (Unda Fitrat, Siddiqiy, Vadud Mahmud, Akobir Mahdum, Abdulqodir Shakuriy bilan birga Ayniyning nomi ham qayd etilgan). So'nggi maktubida „Maorif yo'lida ishlayturg'on muallimlarning boshini silangizlar! Maorifg'a yordam etingiz! O'rtadan nifoqni ko'taringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qo'ymangiz! Har ish qilsangiz jamiyat ila qilingiz! Hammaga ozodlik yo'lini ko'rsatingiz!“ deb xitob qilgan^[37].

Faoliyatini tadqiq qilish

XX asrning 20-yillarida Hoji Muin Shukrullo o'g'li, Sadriddin Ayniy, Laziz Azizzoda singari zamondoshlari tomonidan bir qancha maqolalar yozilgan. Alloma hayoti va faoliyatini yoritishda 1922—1923-yillarda Hoji Muin muharrirlik qilgan „Mehnatkashlar tovushi“ hamda „Zarafshon“ (1923) gazetalarida e'lon qilingan maqolalari muhim ahamiyatga ega. Sadriddin Ayniy Behbudiyi „Oliyshon ustod“ hamda „Turon dohiysi“ kabi nomlar bilan ulug'lagan^[39].

Behbudiy hayoti va faoliyatini yoritishda keyinchalik Ahmad Aliyev, Solih Qosimov, Naim Karimov, Begali Qosimov, Sherali Turdiyev, Sirojiddin Ahmedov, Ulug'bek Dolimov, Bahodir Karimov, Shuhrat Rizayev, Nurboy Jabborov, Zaynobiddin Abdirashidov kabi ko'plab jadidshunos olimlar izlanish olib borgan^[19]. Germaniyadagi Humbolt universiteti professori, turkshunos olim Ingebord Baldauf Behbudiyning haj safariga oid kundaliklarini nemis tiliga tarjima qilish bilan shug'ullangan^[40]. Ingebord Baldauf „Mahmudxo'ja Behbudiy – Falastinda“ nomli maqola yozgan^[2]. 2023-yilda Naim Karimov „Mahmudxo'ja Behbudiy“ monografiyasini nashr etgan.

Nashr qilingan asarlari

- Behbudiy. „Padarkush“. „Sharq yulduzi“ jurnali, 1989, 7-son.
- Behbudiy. „Ehtiyoji millat“. „Sovet O'zbekistoni“ gazetasi, 1989.
- Behbudiy. „Bayoni haqiqat“. „Fan va turmush“. 1992, 5-son.
- Behbudiy. „Yoshlarga murojaat“, „Ikki emas, to'rt til lozim“. „Tafakkur“ jurnali, 1994, 1-son.
- Behbudiy. Tanlangan asarlar. T.: Ma'naviyat, 1997, 1999.(ikkinchi nashri)

Xotira

- Qarshi shahri 1926–1937-yillar davomida Behbudiy nomi bilan atalgan^[41];
- 1977-yilda „Saylanma“ asarlari chop etilgan;
- Behbudiy asarlari O‘zbekistondagi darslik va o‘quv qo‘llanmalariga kiritilgan;
- Toshkent va Samarqand shaharlaridagi ko‘cha va maktablarga nomi berilgan;
- 2006-yilda Samarqandda yodgorlik o‘rnatilgan;
- Tojikistonning Xo‘jand shahrida Behbudiy sharafiga gimnaziya ochilgan;
- 2020-yilda O‘zbekistonda allomaning 145 yillik tavalludi nishonlangan;
- Toshkentdagi Adiblar xiyobonida Behbudiyga haykal qo‘yilgan^[42];
- 2002-yilda rejissyor Baqo Sodiqov Behbudiy haqida film suratga olishni boshlagan^[43], keyinchalik bu ish to‘xtatilgan. 2020-yilda suratga olish ishlari qayta tiklandi va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni munosabati bilan premyera o‘sha yilning 8-dekabrida bo‘lib o‘tgan^[44];
- 2021-yilning 18-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 13-apreldagi 206-sonli qarori asosida Samarqand shahrida Mahmudxo‘ja Behbudiy uy-muzeyi tashkil qilingan^[45].
- 2021-yilda Turkiyaning TRT Avaz telekanali „Köklerin İzinde“ turkumi ostida turkiy dunyo ziyolilarining hayoti va faoliyati yoritilgan filmlar suratga olgan. Filmning 17-qismi allomaga bag‘ishlanib, „Mahmud Hoca Behbudi“ deb nomlangan^[46];
- 2024-yilning 22-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning dramaturglar uchun Mahmudxo‘ja Behbudiy nomidagi mukofot ta’sis etish haqida qarori imzolangan^{[47][48]};
- 2025-yilning 3-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning „Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida“gi qarori qabul qilingan^[49]. Qarorga ko‘ra, 2025-yilda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida „Mahmudxo‘ja Behbudiy merosi va jadidlik harakatini o‘rganishning dolzarb masalalari“ mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi hamda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatrida Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga bag‘ishlangan tantanali adabiy-ma’rifiy xotira kechasi tashkil etilishi belgilangan.

BEHBUDIYNING VASIYATI

Turkiston xalqlarining hurriyati va taraqqiysiga borini safarbar qilib, millatlarning ustozi va peshvosiga aylangan, fidoyilik namunasini ko‘rsatgan buyuk ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy uchun qayg‘urgan ziyolilar uning qaqshab turgan siymosini va qilgan o‘tli nidosini bir kichik “Vasiyatnoma” orqali namoyon etmoqqa harakat qildi.

“Vasiyatnoma” uni ko‘rgan kishidan eshitilganiga ko‘ra, 1922 yil boshida jadidchilik faollaridan biri Hoji Muin Shukrullo tomonidan e’lon qilingan. Maqolada mazkur kichikkina “Vasiyatnoma”ning asl nusxasi yo‘qolib ketgani so‘zlanadi. Shuncha vaqt u topilmadimi, endi uni topmoqdan umid yo‘q. Vasiyatning mohiyati nima ekani ma’lum. U umrning vaqtinchalik ekanini anglagan kishi ortida qolayotganlarga o‘z orzu-armonlaridan tashqari, vorislar uchun eng muhim deb bilganlarini qattiq uqtirishdir. Shuning uchun “Vasiyatnoma” bizga kerak va uni tiklamoq burchimizdir. “Donolarning tirikligida aytgan so‘zlarining yarmi vasiyat” degan naqlga amal qilib, ma’naviyatimizning ulug‘ namoyandasi merosi bilan tanishish asl “Vasiyatnoma”ni bizga taqdim qiladi.

Buning uchun Mahmudxo‘ja Behbudiy “Tanlangan asarlar”idan joy olgan maqolalarni sinchiklab o‘qishning o‘zi kifoya qiladi. Kitobga 1906–1918 yillar oraliq’ida yozilgan maqolalar

kirgan, ular 23 ta. Diqqat qaratilsa, ularni Behbudiy o'ttiz yoshdan keyin, ya'ni atrof-olamni anglab olgan, ma'lum darajada tajribaga ega bo'lgan davrida yozgan. Shuning uchun ham, ulardan vasiyatlar izlash o'rindir.

“Haq olinur, berilmas!”

Behbudiy hayoti mamlakatda ijtimoiy-siyosiy keskin o'zgarishlar davriga to'g'ri keldi. U umri davomida uch siyosiy bosqichni ko'rdi. Shuning uchun undan bir xillikni talab qilish mumkin emas. Zero, dastlab chorizm siyosati va ijtimoiy muhitida yashab, unda Turkiston musulmonlarining ahvolini o'z hayoti, turmushida to'la his qilgan, boshidan kechirganlariga ko'ra hamda Rusiyada harakatda bo'lgan siyosiy kuchlarning tub mohiyatini chuqur o'rgangan Behbudiy paydo bo'lsa, so'ng Turkiston muxtoriyati, undan so'ng esa o'zi avval rad etgan sho'ro sharoitida millat taqdirini halokatdan asrab qolish yo'llarini axtargan zot gavgavlanadi. Chorizm haqida so'zlar ekan, Behbudiy “Hozirgi Rusiya davlati tariqi hukmronligi (siyosiy tuzumi) noqis ekanligiga har bir xabarlik kishi iqroridir”, deb yozadi “Xayru-l-umuri avsatuho” (“Ishlarning o'rtachasi yaxshidir” – hadis) nomli maqolasida. Bu noqislikning sababi mamlakatda maydonga chiqqan har xil siyosiy firqa – partiyalarga bo'lingan xalqni idora qilishda “irodai mustaqila” – samoderjaviya, imperator irodasining ustuvorligi va uning imzosi “zakun” sanalib, joriy qilinishida edi.

Mahmudxo'ja Turkiston muxtoriyatini zo'r mamnuniyat bilan qarshi oldi. Lekin u muxtoriyatning nechog'li zaif, kuchli dushmanlari uni bo'g'ib tashlashga qodiru hozir ekanini yaxshi bilar edi. Shuning uchun uni faqat yerli xalqlarning birlashmoqlari orqaligina saqlab qolinishi mumkinligini jon-jahdi bilan tushuntirishga, uqtirishga harakat qildi. “Qozoq qardoshlarimizg'a ochiq xat”, “Muhtaram samarqandiylarg'a xolisona arz” maqolalarida bu yaqqol ko'rinadi.

“Bovurlar! Bilingki, hozirda Turkistondagi barcha xalqlar uchun muxtoriyat e'lon qilindi va siz bilingki, haq olinur, berilmas. Inchunin, muxtoriyat-da olinur, berilmas... Biz bo'shlik qilsak va Turkistondagi xalqlar birlashib, muxtoriyat yo'liga sa'y qilmasak, albatta, hozirgi qog'oz ustidagi muxtoriyatimizni ham yo'q qilurlar...” So'zlarining ta'sirini oshirish uchun muallif “Qur'on” so'zlari bilan maqolani tugatadi: “Allohning ipiga birlashingiz va tarqalib ketmangiz!”

Holatni tahlil qilib, yaxshi tushunib turgan Behbudiy “qog'oz ustidagi” muxtoriyatni yo'q qiluvchi illat milliy birlik va ahillikning yo'qligi, amaldorlarning nafsoniyat va g'urur havosiga berilishi ekanidan ogohlantiradi, istiqlolni amaliyotga aylantirish uchun turli tabaqalarning ittifoq tuzib, unga xizmat qilishi lozimligini ta'kidlaydi. Jumladan, samarqandliklarga qarata shunday deydi: “Ey hazrati ulamo! Ey tujjor, ahli kasaba va ag'niyo! Ey, g'ayratlik yoshlar! Nifoq va bir-biriga dushmanlikni tashlangiz. Xudo haqi, arvohi anbiyo hurmati va bu kunlarda qornini to'yg'azolmayturgon yetim va bevalar haqi, bir-biringiz ila ittifoq etub, jamiyatlar barpo qilub, xoliq Xudoning naf'ig'a, din va millat yo'liga xizmat etingiz. Millat va xalq sizdan xizmat va yaxshilik talab etadur, nafsoniyat va g'urur emas”.

Yuqoridagi so'zlarda 42–43 yoshli ziyolining jamiyatning nufuzli ulamolari – din rahnamolari, katta mulkdorlar tabaqasiga qarata mardona da'vati undagi katta jasoratni, jur'atni ko'rsatadi.

Ulug' ma'rifatparvar qo'ldan berilgan ozodlik oqibatida xalq yuz yillar asirlik domida qolib, o'z qadr-qimmatini, juda ko'p moddiy va ma'naviy zararlar ko'rib, keyin ketishidan nadomat chekadi: “Aziz hamshaharlarimg'a, mo'tabar ahli vatanim, hammangiz bir bo'lub, xalq va dinning rivoji uchun birlashub, oradagi nafratlarni tashlab, Xudoning bergan hurriyat ne'matidan naf'lanmoq harakatida bo'lmoq kerak va al'on (hozirgi holatda) bizning harakatsizligimiz hurriyatni ketkurub, yana boshqalarga bizni asirlik darajasiga tushurur va yuz yillar ila keyin ketarmiz. Bizning avlodimiz hamda xalqi olam bizga rahmat o'mig'a la'nat o'qurlar”.

Behbudiy bu so'zlarini hukman to'g'ri so'zlar deydi. Bu so'zlari uchun ba'zi yoshlar ham, qarilar ham ranjishi mumkinligini aytadi. Biroq “to'g'rini aytmaguncha, ishlar to'g'rılanmas”.

Alloma umrining oxirgi taxminan ikki yili ilk sho'ro davriga to'g'ri keladi. Uning xorijiy tillarni bilishi, keng mushohada va ko'p bilim egasi ekani sho'rolarning turli jabhalarda boshlagan “inqilobiy” ishlariga jalb etilishiga sabab bo'ldi. U hatto Eron va Afg'oniston davlatlariga konsul qilib yuborishgacha taklif qilingan. Biroq Behbudiy o'z sog'ligi yomonligini bayon qilib bosh tortadi. Lekin mamlakatda turkistoniylarning o'z maqomiga, sekin-asta o'z davlatiga ega bo'lishi uchun harakat qilish, davlat ishlarida ko'proq ishtirok etish lozimligini tinmay uqtiradi. “Oxirinda maa-t-taassuf (afsus bilan) iqror etamanki, — deb yozadi u, — siyosiy, ilmiy, maishiy va askariy yo'llarda zamon bizdan ko'p ishlar talab etadur... Ammo bizda ishlayturg'on odam oz va bori ham ishlaymaydur va yoinki egri ketadur. Bu fursatlar o'tganlaridek o'tib ketar. So'ngra pushaymonlikdin boshqa qo'lda bir narsa qolmas...”

Milliy davlatchilik uchun milliy kadrlar

Ma'rifatli jamiyatning muhim jihatlaridan biri malakali kadrlarga ega bo'lishdir. Kadrlar tanqisligi yoki umuman yo'qligining o'zi mamlakat salohiyatining pastligidan dalolat. Xonliklar davrida boshlangan iqtisodiy, ijtimoiy va harbiy sohalaridagi tanazzul sabab O'rta Osiyoda XX asrning boshiga kelib ham juda ko'p sohalarida zamonaviy kadrlar yo'q hisobi edi. Lekin bu degani musulmon xalqlarining, jumladan, turkistonliklarning azaliy jaholatidan dalolat emas. “Tarixdan bexabar ba'zi kishilar va yoinki dushmanlar musulmonlarni avvaldan oxirg'acha nodon, vahshiy ko'rsaturlar. Musulmonlar dunyoda hech nima ixtiro qilmadi... derlarki, ul g'alatdur”, deb yozadi Mahmudxo'ja. Uzoq ajdodlarning ilmda dunyoni lol qilib ko'rsatgan nash'u namolari ma'lum. Ular “ushbu kungi ixtirolar uchun asbob (asoslar) hozirlab qo'ydi”lar. Ammo xalqimiz keyingi asrlarda “ixtiroi bashar”dan chetda qolgani haqiqat esa-da, ma'rifat bilan uyg'onmoq mamlakat qaddini tiklashni ta'minlaydi. “Hozir faranglar navbatidur, — deb davom etadi Behbudiy. — Bir zamon kelurki, navbat boshqalarga tegar, bul dunyoning odatidur”. Bu yerda “boshqalarga” deyilganda ehtimoliy “bizga” mazmuni bor.

O'n to'qqizinchi yuz yillik o'rtalarida ham O'rta Osiyo xalqlari dunyodan uzilib qolgan, boshqa davlatlar bilan muomala va munosabati yo'q edi. Bunday sharoitda chorizm istilosidan so'ng yerli xalqlardan ularning manfaatlarini qonunlar asosida himoya qiluvchi kadrlar juda zarur edi. “Davlat dumasi nari tursin, sudga va rasmiy mahkamalarga kirib, bizni mudofaa qiladurg'an kishimiz yo'q. Boshimiz og'risa do'qtirga boramiz, ammo dardimizni aytmoqg'a til yo'q. O'zimizdin do'qtir yo'q”. Yana bir o'rinda: “Imorat qilmoqchi bo'lsak, plon-loyihasi lozimki, injinerga muhtoj bo'larmiz. Ammo biz hanuz “muhandis” ismini bilmaymiz”, deb yozadi Behbudiy. Shuningdek, u Turkiston mevasi, donasi, toshi, tuprog'i, shohi, adras, beqasam, alocha kabilari ham Yevropa bozorlarida o'zga ellar dallollari tomonidan arzon olib ketilib, bir necha barobar qimmatga sotilayotganidan, bunday ishni qilish uchun bizning til biladigan, soha ilmidan xabardor zamonaviy savdo kishilarining yo'qligidan zorlanadi. Hatto, tojir va boylarning ilmi tijorat, hisob-buxgalterlik biladigan bir odamlari yo'qligini qanday baholash mumkin edi?

1913 yilda yozilgan “Ehtiyoji millat” maqolasida 30 yil burun Samarqandning birgina Yomini mahallasida 300 alochabof ishchi bo'lgani, ayni zamonda ulardan 30 nafari qolgani va yana o'n yildan keyin ular tugab ketishi xavfi borligi ta'kidlanadi. Bularning hammasiga sabab ma'rifat, maorifning yo'qligi, bilimsizlik edi. “Bu ketishning oxiri yamondur, o'qumoq, o'qutmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilmi diniy va ilmi zamoniy meros qolsun”, deydi muallif.

Behbudiy bu muammolarni yechish uchun yoshlarni avval zamonaviy maktablarda so'ng Rossiya dorulfununlarida o'qitish g'oyasini ilgari suradi. Bizda, hatto, oddiy dorulmuallimin (o'qituvchilar instituti) ham yo'qligi, ularni bir emas, ko'pini ochish lozimligini davr ziyoli olimlari va mulkdorlari oldidagi vazifa sifatida belgilab beradi.

Bizningcha, bu vasiyatlar bizning Yangi O'zbekiston sharoitiga kelibgina davlat tomonidan bir qadar ado etilmoqda. Maktab ta'limi ishlari isloh etilmoqda, Prezident maktablari, ijod va ilmga yo'naltirilgan maxsus maktablar joriy etilishi keng ko'lamda yo'lga qo'yildi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarining soni va qamrovi ortishi, xususan, xorijiy mamlakatlar oliy ta'lim muassasalarining filiallari ochilishi, qo'shma ta'limlar, shuningdek, nodavlat universitetlar ochilishiga yo'l berilishi zamonaviy kadrlar tarbiyalanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz tomonidan har yili iqtidorli yoshlarning 500 nafarini chet ellardagi nufuzli universitetlarda ta'lim olishlari uchun sharoit va mablag' ajratilayotgani milliy, mahalliy zamonaviy, yuksak malakali kadrlar tayyorlanishida yangi sahifa ochishi shubhasiz. Bu ishlar xalqimizning asriy orzulari, Behbudiydek ma'rifatparvarlar armonlarining ro'yobga chiqishi dalilidir.

Usuli jadidiya maktablari

Bugun zamonaviy o'zbek maorifi, pedagogikasining asoschisi kimligi haqida o'ylansa, buning javobi Mahmudxo'ja Behbudiy deyilsa, adolatdan bo'ladi. Uning “Kitobatu-l-atfol”, “Kitobi muntaxabi jug'rofiyai umumiy” kabi darsliklari o'z davri ta'limida qanchalik ahamiyat kasb etgan bo'lsa, “Padarkush” dramasi va maqolalari tarbiyaviy xarakteri bilan pedagogika fani shakllanishiga undan ham ko'proq xizmat qildi, deya olamiz.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Behbudiyning pedagoglik faoliyati umumiy jadidchilik harakatining bir qismi bo'lib, Yevropada kechayotgan jamiyatni modernizatsiya qilish, zamonaviylashtirishning sharqona ko'rinishidan iborat edi. Shuning uchun ham maktablar islohoti va mamlakat taraqqiyoti masalasi uning chiqishlarida uyg'un olib boriladi. “Boshqa millatlarga qaralsa, ko'rilmurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o'qilur. Chunki “dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo'lur”.

Yana bir o'rinda u deydi: “Millatlar taraqqiyig'a bir necha sabablar bo'lub, tub sababi ulamo va ag'niyoning hamiyat va g'ayratlaridur”. Bu yerda hamiyatli ilm ahli zamonaviy bilimlarni o'zlashtirib, uni yoshlarga yetkazishi, g'ayratli mulk egalari esa ularni, umuman, ta'limni qo'llab-quvvatlashi bilan taraqqiyotga erishilishi haqida gap bormoqda.

Jadid maktablarining mohiyati Behbudiy tomonidan qisqa va lo'nda qilib shunday talqin qilinadi: “... Zamona har kuni yangilashur. Yangi ilm va yangi fikrlar va fununi zamoniyani darbar (o'zida saqlagan, tashuvchi) qilgan odamlarni talab qilur”. Binobarin, ana shunday odamlarni o'qitib, tarbiyalab yetishtirish jadid maktablarining maqsadi bo'lgan. Lekin “johilona taassublik”ka berilgan, qadimchilar hisoblangan kishilar bu maqsad mohiyatini tushunmas, jiddiy qarshiliklar qilar edilar. Ularga qarshi Behbudiy bir og'iz so'z bilan “Kelar zamon uchun hozirlanayluk, o'tgan zamon uchun emas”, deya javob beradi.

Behbudiyning Turkiya, Misr, Qrim, Kavkaz, Qozon, Rossiya, Yunoniston, Bolgariya, Avstriya, Germaniya, Ukraina, Saudiya, Suriya va boshqa bir qator yurtlarda bo'lib, ulardagi hamda Ismoilbek G'aspirali kabi jadidchilik asoschilaridan ta'lim haqidagi ma'lumotlar olgani maktablar islohoti borasidagi qarashlarini mukammallashtirdi. Ta'limda ilg'or mamlakatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va harbiy sohalarida ham peshqadamligiga havas bilan qaradi. Turkiston ham ana shunday davlatlar qatorida bo'lishini orzu qildi. 1914 yilda “Oyina” jurnalida bosilgan “Muhtaram yoshlarga murojaat”ida nadomat bilan shunday fikrlarni yozadi: “Er yuzidagi barcha millatlar o'z bolalarini(ng) ibtidoiy tarbiyasig'a va maktablarning har jihatdan intizomi va akmoliga ahamiyat berub bolalarini milliy va diniy ruhda mukammal yetushdurarlar. Aning uchundurki, o'zga millatlar diniy va milliy hissiyotga molik bo'lub, har ishda diyonat va milliyatni muqaddam tutarlar”. Behbudiy bu hissiyotlarni vatanparvarlik omili sifatida tushunadi. Muallif dunyodagi urushlar va iqtisodiy tortishuvlarni o'sha diyonat va milliyat hissiyoti natijasi sifatida ko'radi. Turkiston xalqida bunday hissiyotning yo'qligidan qayg'uradi.

Uning fikricha, bu hissiyotni maktablar tarbiyalashi kerak. Jadidlar ustozlari maktablarni “taraqqiyning boshlang’ichi, madaniyat va saodatning darvozasi” hisoblaydi.

Mahmudxo’ja Behbudiyning zararli illatlardan xalos bo’lish g’oyasi

Behbudiyni kelajak davrni “tamaddun asri” deb ataydi. Bunday davrda zamonaviy ilmlarsiz, quruq, chirik tassaobot bilan yashab bo’lmaydi. Shuning uchun u jadid maktablarida ko’proq zamonaviy dunyoviy fanlarni o’zlashtirishga diqqat qaratadi. Dunyoviy fanlarni esa jahonning taraqqiy qilgan xalqlari ilm-fani orqali o’rganish ko’zda tutiladi. Shuning uchun ham rus, nemis, fransuz, ingliz, italyan, arab, yapon tillaridan birini, bu tillar mutaxassisi bo’lmasa, Kavkaz yoki Qrim adabiy tillaridan birini o’rganish shart deb belgilaydi u. Ulug’ ma’rifatparvar yoshlarni zamon bilan hamnafas bo’lishga, zamonaviy ilmlarni o’rganishga shu qadar ko’p tashviq qiladiki, bugungi kunda ham bu fikrlar o’z ahamiyatini yo’qotmagan.

Behbudiyning zamonaviy ilmlarga da’vati hamon dolzarb bo’lgani kabi ularni egallashda monelik qiladigan illatlardan ham xalos bo’lmadik, balki ular ortmoqda. Taraqqiyotga to’siq bo’ladigan illatlar uning nazdida quyidagilar:

Birinchisi, to’y va aza dabdabalariga berilish. Bu illatlar sil yoki maxovlikdan ham yomon, inqirozga, tahlikaga, jahannamga sabab bo’luvchi, xonavayron va g’arib etuvchi illatlar sifatida Behbudiyni tomonidan juda ko’p marta ta’kidlanadi. To’y xoh nikoh bo’lsin, xoh xatna xalqimizda o’lmaguncha qutulib bo’lmaydigan balo bo’lsa, azada go’yoki o’likning hurmati sifatida yetimlarning yoki bevalarning holi o’ylanmasdan, ba’zan qarzlarni ado qilishni ham unutib, ayniqsa, ba’zan qarz olib qilinadigan xarajatlar millat uchun kulfat ekanidan nadomat chekadi. Bechora sag’ir, mushtipar ayollar merosdan haqlarini ololmay, xudoyi, xayrot, yirtish va hokazo sarf-xarajatlar nafaqat isrof, balki katta gunohlar sifatida tushuntiriladi. Negaki, bu xarajatlar xalqning foydasiga, mamlakatning taraqqiysiga, millatning yuksalishiga emas, ularning xorlikka mahkum etilishiga bois bo’ladi.

“Bir necha boyvachchani bilarmanki, — deb yozadi Behbudiyni, — eng qattiq xizmatlarga giriftor. Sababi nedur – ilmsizlik. Holbuki, alarning to’yiga atosi 5 ming so’m sarf etib edi”. To’y yoki aza dabdabasi hech kimga hech narsa bermaydi. Bular ba’zan boylarning bir-ikki kun nomini chiqarsa ham, tez unutiladi, boshqa natija bermaydi. Shuning uchun ham, “Boshqa millatlarning boylari faqir va yetimlar uchun maktab va dorulfununlar soladurlar, faqir va yetimlarning o’qumog’i uchun vaqf-istependiyalar tayin qilur. Boshqa millat miliyo’nerlari maktabi ila istependiyasi-la, idora qilaturgan gazet va majallasi-la, bino qilgan dorulhojizini, barpo qilgan jam’iyati xayriyasi-la faxr qiladur”. Bu so’zlar o’z davrida ibrat uchun edi, albatta. Bizda hozirgi kunlarda ham shunday fidoyilar bormi? Bor bo’lsa ham, besh-o’ndan oshmas.

Ikkinchisi, soxta obro’ va hasham ishtiyoqi. Har qanday soxtalik aslida nuqsonni, ojizlikni, notovonlikni xaspo’shlashga urinishdir. Soxta obro’ va hashamga ruju’ qo’yish kishini haqiqatdan uzoqlashtiradi va oxir-oqibat xorlikka muhtalo qiladi. Behbudiyni bu masalada ham juda ko’p to’xtaladi. Jumladan, uning “Zo’raki boy” maqolasida keltirilgan ibratli hikoya nafaqat davr ahli bugungi soxtakorlikka berilgan kishilarga ham tanbehdir.

Uchinchisi, vaqtni zoya qilishdan qaytarish. Behbudiyni vaqt qadrini ilm va unga amal qilingan foydali faoliyat bilan bog’laydi. Lekin hayotda foydasiz harakatlar bilan umrini o’tkazayotgan kimsalar ham borki, ularning hasratidan jamiyatning ilgari ketishi, taraqqiyot bo’lishiga zarar yetadi. Behbudiyni buni ko’pkari misolida zikr etadi: “O’n-yigirma chaqirimga to’y bo’ldimi, har kim ishini, dehqonchiligini qo’yub, o’tlanib ko’pkariga ketar. Dehqon uchun oltundan aziz vaqt favt bo’ldi, ketdi. Ekin birgina kun keyin sepilgan uchun pishmay qolar. Birgina kun so’ngra yig’ilgan uchun yog’inga qolib, ba’zan xirmanlar chirib ketar”.

Muallif ma’lum bir shaharda yahudiylar o’liklarini oqshom eltib ko’mishlarini eslatib, bunga ularning kunduz odamlarni ishdan qoldirmaslik maqsadi sabab ekanini ta’kidlaydi. Bizda bo’lsa,

to'y, ma'rakalar uchun haftalar, ba'zan oylar uvol ketishidan ozorlanadi u. Shuningdek, yoshlarni vaqtning qadriga yetishga, vaqtni imkon qadar ilm-fan o'rganishga sarflashga da'vat etadi.

To'rtinchisi, rishva – pora berish. Pora Behbudiy va undan oldin o'tganlar tilida rishva deyiladi. Ko'pincha, rishva oluvchilar qoralanadi. Lekin Behbudiy rishva beruvchilarni la'natlaydi. Chunki ular zamona ilmini bilmaganidan, o'zga millat vakillari bo'lgan amaldorlar oldida o'zliklaridan pora berishga majbur bo'ladilar. Ishini pora bilan bitkazgan notavon bir umr shu aqidada qoladi, ya'ni porasiz ish bitmasligiga o'rganib, kelajagini qorong'u qilib qo'yadi.

Beshinchisi, ilm ahliga nopisandlik. Ko'p bilgan dunyoni ko'proq anglashi ayni haqiqat. Dunyoni anglagan hamma yutuqlar ortida ilm turganini ham tushunadi. Dunyodagi katta yutuqlarning hammasi ham shundan. Kichik moddiy muvaffaqiyatlar avomnigina emas, haqiqiy ilm ahli bo'lmaganlarni ham chalg'itadi. Haqiqiy taraqqiyot, chin yutuqlar uchun haqiqiy ilm ahlini tarbiyalab yetishtirmoq lozim. Avom ilm ahliga ergashsagina haqiqiy taraqqiyga, yutuqqa erishiladi, degan xulosaga keladi Behbudiy va deydi: “Boshqa millat ulamosiga tobe' ekan, bizning ulamo bil'aks avomg'a tobe'dur. Buning oxiri xarobdur. Yigirma-o'ttuz sana so'ngra yana yomonroq bo'lur, musulmonlik ilm va odob ila qoim, millat axloq, fazl va hunar ila boqiy qolur”.

Yuksak madaniyatli va ma'naviyatli jamiyat orzusi

Behbudiy fikrlarini umumlashtirib xulosa qilinadigan bo'lsa, Turkiston xalqining har bir a'zosini o'qimishli, milliy qadriyatlar jonkuyari, o'zligini anglagan, jahon ilm-fani va madaniyati yutuqlaridan bahramand, ular istifodasiga qodir, milliy taraqqiyotga monelik qiluvchi illatlardan xalos bo'lgan va ularga qarshi kurashuvchi shaxslardan iborat bir jamiyat, ya'ni yuksak madaniyatli va ma'naviyatli jamiyat orzu qilingan. “Oh! Biz qanday keyin qolganmiz. Xalqi olam usuli jadid va ilmi zamoniy ila osmonlarga uchar, biz hanuz bir-birimizni takfir (kofirga chiqarish) va tal'in (la'natlash) ila vaqt o'tkarurmiz”, deydi u. Ko'zlangandek jamiyat a'zolari bo'lishlari, jahonda munosib o'rin egallashlari uchun millatdoshlarining ikki emas, to'rt tilni bilishlari lozimligi kun tartibiga jiddiy masala qilib qo'yiladi.

Ma'naviy yetuklik, madaniy barkamollik o'zlikni anglashdan boshlanadi. O'z yoki farzandi ismining boshqalar tomonidan noto'g'ri atalishi, yozilishiga qarshi tura olmaydigan, uni to'g'rilashga kuchi yetmaydigan odamdan qanday qilib yetuklik, barkamollik kutish mumkin? Shuning uchun ham Behbudiy bu masalani alohida muammo sifatida ko'tarib chiqadi. Abdussamadni Absamat, Absat deb, Yodgorni – Jodigar, Lutfulloni – Nutfulla deb yozish mirzolarining savodsizligi tufayli yuzaga kelsa ham, bunga ism egasining ilmsizligi va didsizligi sabab. Xuddi shunday, do'kon va korxonalarining nomlarida ular egasi qo'ygan nomlarning “Abdukodir”, “Patxulla”, “Obduraxmon” kabi buzib yozilishi yoxud bolalarga Norqul, Toshmurod, Boltaqul kabi ma'nosiz ismlar qo'yilishi ham maqsadga muvofiq ko'rilmaydi. Bularning tuzatilmasligiga aybdor kim? Behbudiy aybni jamiyatdagi jaholatga qo'yadi. “Bir zamon bu g'alat ismlarni to'g'ri yozib mahkamaga berilsa, mahkamadan to'g'rini g'alat deb qaytararlar...” Bu muammolar hanuz bor emasmi?

Zamonaviy, madaniyatli kishining fazilatlaridan biri san'at orqali estetik saviyasini oshirib borishdir. Bunda teatr eng maqbul san'atdir. Chunki unda juda ko'p san'atlar birlashadi. Shuning uchun ham Behbudiy unga alohida e'tibor qaratadi: “Teyotr bir nav' maktab hukmindadur”. “Teyotrxonalari masxarabozxona bo'lmay, balki ibratxonadur. Va anda mushaxxis (aktyor) bo'laturgonlar o'yunchi va masxaraboz bo'lmay, balki mushaxxis va muallimi axloqdurlar”. Behbudiy bu san'atning nozik xususiyatlari haqida ham mulohazalar bildiradi: “Teyotr uchun muharrirni(ng) (dramaturg) ne qadar chuqur o'ylaguvchi zarif va nazokatligi lozim bo'lsa, mushaxxislarning ham tovonu va muqallid va har nimarsani o'zidek qilib ko'rsatguvchi,

nuktadon bo'lishi lozim bo'lub, bul alohida bir san'atdurki, ovrupolilar munga ham alohida maktab ijod qilganlar”.

Behbudiy teatrni tushunmay, uni din yo'li bilan man' qilishga urinuvchi kimsalarga “Padarkush”ni misol qilib: “Muhtaram hamshaharlarimizdan rijo etarmizki, kelib ko'rgonlari gunah bo'lgon joyini ko'rsatsalar”, deydi. Umuman, din himoyachisi sifatida ham Behbudiy yoshlarga dunyoviy ilmlarni puxta o'rganish diniy e'tiqodni kuchaytirishi to'g'risida misollar keltirib o'git beradi: “Zotan, islomiyat shunday bir diniy matn va qobili taraqqiydurki, na qadar ilmi zamoniyo ko'p o'qusa, insonni yana diniy islomga aqidasi shuncha mustahkam bo'lur”.

Biz ulug' bir ajdodimizning yo'qolgan kichik “Vasiyatnoma”sini topa olmasak ham, uning aslini anglamoqqa qasd qilgan edik. Vasiyatnoma insonning orzu-armonlari ifodasi ekan, ularni vasiyat sohibining dunyoqarashi, fikrlari, so'zlari va amallari anglatadi. Ulug'larning maqsad, g'oyalari ham ulug' bo'lishi “Vasiyatnoma”si mazmunini ham ana shunday darajaga olib chiqadi. “Vasiyatnoma”ning har bir bandi vorislar tomonidan ado etilganda ruhlar orom topadi. Mahmudxo'ja Behbudiy dunyoqarashi, fikrlari, so'zlari va amallari uning orzu-armonlarini, bizga nimalarni vasiyat qilganini anglatadi. Biz ulardan qaysilarini ado qildik, qaysilar hamon ado etilishini kutmoqda? Ajdodlarga sodiq avlodlar vasiyatlarni munosib ado etadilar.

Mahmudxoja Behbudiy hikmatlari

"Ilm - eng katta kuchdir."

Bu hikmat Behbudiyning ilm-fanga bo'lgan e'tiqodining ifodasidir. Uning nazarida, ilm orqali xalqni jaholatdan qutqarish va taraqqiyotga erishish mumkin edi.

- **"Ma'rifatli bo'l, o'zligingni angla."**

Behbudiy xalqni o'z tarixini, madaniyatini va milliy qadriyatlarini bilishga chaqirgan. Uning fikricha, o'zlikni anglash, milliy g'ururni shakllantirish taraqqiyotning asosi edi.

- **"Vaqtning g'animat biling."**

Behbudiy har bir daqiqani ilm olish, mehnat qilish va jamiyatga foydali bo'lish uchun sarflashga undagan. U vaqtning qadrini bilish va uni behuda sarflamaslikka alohida e'tibor bergan.

- **"Yangi narsalarni o'rganishdan cho'chimang."**

Behbudiy eski an'analarni qadrlash bilan birga, yangi g'oyalarga, ilm-fanga ochiq bo'lishga chaqirgan. U taraqqiyotning kaliti yangiliklarni qabul qilish va ularni hayotga tatbiq etishda ekanligini ta'kidlagan.

- **"Birlashgan kuch - buyuk kuch."**

Behbudiy xalqni birlashishga, hamjihat bo'lishga va birgalikda harakat qilishga chaqirgan. Uning nazarida, birlik va hamjihatlik har qanday qiyinchiliklarni yengishning asosiy sharti edi.

Behbudiyning hikmatlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, yoshlarga ilm olish, ma'rifatli bo'lish va o'zligini anglashga da'vat etadi.

Behbudiy g'oyalari bugun ham dolzarb

“Turkiston jadidlik harakatining asoschisi”, “Milliy ozodlik harakatining buyuk namoyandasi”, “Ilm-fan, ta’lim va tarbiya, adabiyot va san’at, matbuot sohalarini rivojlantirish, xalqimizning ongu tafakkurini yuksaltirish hamda hurriyatga erishish yo’lida o’z hayotini baxsh etgan fidoyi zot”...

Bu ta’rifu tavsiflar davlatimiz rahbarining 3 yanvar kuni e’lon qilingan “Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo’ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to’g’risida”gi qarorida keltirildi va biz Behbudiy avlodlari qalbini faxr, iftixorga to’ldirdi.

Avvalo, keyingi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning buyuk jadid bobolarimiz, xususan, Mahmudxo’ja Behbudiy hayoti va ilmiy, ijodiy faoliyatini o’rganish, keng targ’ib etishga alohida e’tibor qaratayotganini alohida qayd etishni istardim. Bu Vatanimiz ozodligi, xalqimiz ma’rifati uchun jon fido qilgan ulug’ ajdodlarimiz ruhini shod etish, ular nomini ulug’lash va o’sib kelayotgan yosh avlodning intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Toshkent shahridagi Adiblar xiyobonida bobomiz haykali o’rnatilgani, Samarqand shahrida uy-muzeyi tashkil qilingani, iste’dodli dramaturglar uchun Mahmudxo’ja Behbudiy nomidagi mukofot, talabalar uchun stipendiya ta’sis qilingani, badiiy film yaratilgani ulug’ jadid ma’naviy merosini o’rganish borasidagi juda katta xayrli ishlardir, desak mubolag’a bo’lmaydi.

2020 yilda Prezidentimiz farmoni bilan Mahmudxo’ja Behbudiy “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi va mukofot Behbudiy avlodlariga topshirildi. Kamina Shavkat Mirziyoyev qo’ldan ushbu mukofotni qabul qilib olar ekanman, u kishiga butun oilamiz nomidan minnatdorlik bildirgandim.

Oradan besh yil o’tib, ma’rifatparvar bobomiz tavalludining 150 yilligini keng nishonlash bo’yicha qaror qabul qilindi. Biz buning uchun hurmatli Prezidentimizga chin qalbimizdan minnatdorlik bildiramiz. Shu bilan birga yubiley tadbirlarining yuqori saviyada o’tishi uchun, bobomiz haqidagi ma’lumotlarni jamlash, uy-muzey eksponatlarni boyitish uchun albatta, o’z hissamizni qo’shamiz.

Qarorda Mahmudxo’ja Behbudiy “Tanlangan asarlar” to’plami, uning hayoti va faoliyatiga bag’ishlangan ilmiy-ommabop kitoblarni nashrga tayyorlash va chop etish, spektakllar sahnalashtirish hamda “Mahmudxo’ja Behbudiy” kinoseriali va “Xalq yuragi” badiiy-publitsistik filmlarining ommaviy namoyishlarini tashkil qilish belgilandi. Shuningdek, Toshkent va Samarqand shaharlarida ilmiy anjumanlar, bir qator madaniy tadbirlar, o’quvchi va talaba-yoshlar o’rtasida “Mahmudxo’ja Behbudiy saboqlari” mavzusida insholar tanlovi o’tkaziladi.

Bizni xursand qilgan yana bir jihat, shu paytgacha bobomiz qatl etilgan Qarshi shahrida u kishi nomi bilan bog‘liq biror ob‘ekt yo‘q edi. Qarorda Qarshi shahridagi ko‘chalardan biriga Mahmudxo‘ja Behbudiy nomini berish hamda unga bag‘ishlangan yodgorlik lavhasini o‘rnatish qayd etildi.

Bobomiz hayotini ma‘rifatga bag‘ishladi, bir umr shu maqsad bilan yashadi. Xalqni farzandlarini o‘qitishga chorladi. Ularga til o‘rgatish, zamonaviy ilmlardan saboq berishni ertangi yorug‘ kelajak bilan bog‘ladi. Maktab ochib, darsliklar, kitoblar yozdi, bolalarga saboq berdi.

“Samarqand” gazetasi, “Oyna” jurnali nashr etib, xalqni uyg‘onishga chorladi. Teatr ibratxonadir, degan da‘vat bilan ilmsizlik qanday oqibatlarga olib kelishini “Padarkush” pesasida ko‘rsatib berdi. Bu asarni o‘z xonadonida sahnalashtirib, odamlarga namoyish etdi.

Bobomiz millatning taraqqiyoti uchun xorijiy tillarni bilish muhimligini qayd etib, “Ikki emas, to‘rt til lozim” degan maqolasida turkiy, fors-tojik, arab, rus va, hatto, ingliz yoki fransuz tillarini bilish shart deb hisoblagan, ko‘p til bilishning ahamiyatini shu maqolasida batafsil sharhlagan.

Nazarimizda, bu qarashlar bugun ham dolzarb, bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Shuning uchun biz jadidlar ma‘naviy merosini qancha ko‘p o‘rgansak, ularning g‘oyalarini targ‘ib etsak, nainki bugungi kunimiz, balki kelajak uchun qimmatli manbalarga ega bo‘lamiz.

Behbudiy tavalludiga bag'ishlab o'tkaziladigan tadbirlar uchun mavzular:

- ☐ “Ma’rifatga eltuvchi yo‘l” – kitobxonlik tanlovi
- ☐ Mahmudxo‘ja Behbudiy: Jadidchilik harakatining yo‘lboshchisi
- ☐ Ma’rifatparvarlik g‘oyalari va ularning bugungi ahamiyati
- ☐ “Padarkush” dramasi — o‘zbek dramaturgiyasining ilk namunasi
- ☐ “Ustoz izidan” – yoshlar o‘rtasida she’r va insho tanlovi
- ☐ Mahmudxo‘ja Behbudiyning publitsistik merosi
- ☐ “Tarjimon” gazetasi — o‘zbek jurnalistikasi rivojida yangi bosqich
- ☐ Behbudiy va islom modernizmi: diniy qarashlari tahlili
- ☐ Jadidlar merosi va zamonaviy o‘zbek jamiyati
- ☐ Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va fojiali qismati
- ☐ Yosh avlod tarbiyasida Behbudiy g‘oyalarining ahamiyati
- ☐ “Ulug‘ siymolar izidan” – intellektual viktorinalar

MUNDARIJA

Soʻz boshi	3
OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI	5
Hayoti	7
Faoliyati	8
Dramaturgiya	9
Ijtimoiy publitsistika	10
Behbudiya kutubxonasi	12
M.Behbudi uy-muzeyining ochilish afishasi.....	13
M.Behbudi uy-muzeyi	14
.....	14
Noshirlik dastgohi.....	14
M.Behbudi uy-muzeyining ochilish afishasi.....	15
Oilasi	15
Vafoti.....	16
Faoliyatini tadqiq qilish	16
Nashr qilingan asarlari	16
Xotira.....	17
BEHBUDIYNING VASIYATI	17
“Haq olinur, berilmas!”	18
Milliy davlatchilik uchun milliy kadrlar	19
Usuli jadidiya maktablari.....	20
Mahmudxoʻja Behbudiyning zararli illatlardan xalos boʻlish gʻoyasi	21
Yuksak madaniyatli va maʼnaviyatli jamiyat orzusi.....	22
Mahmudxoja Behbudi hikmatlari	23
Behbudi gʻoyalari bugun ham dolzarb.....	24
Behbudi tavalludiga bagʻishlab oʻtkaziladigan tadbirlar uchun mavzular:	26
Foydalanilgan adabiyotlar.....	28

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бехбудий, М. Танланган асарлар / нашрга тайёрловчи: Б. Қосимов. – 3- наشري, тузатилган ва тўлдирилган. – Тошкент. – “Маънавият”, 2006. – 280 б.
2. Abdirashidov, Z. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy [matn]: risola / Z. Abdirashidov. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.

Qo'shko'pir tuman Axborot – kutubxona markazi



Ish vaqti:

Soat: 8:00 dan 20:00 gacha

Shanba – Yakshanba 10:00 dan 17:00 gacha

Dam olish kunisiz

Har oyning oxirgi sanasi

“Tozalik” kuni o'tkaziladi.

Manzil: Xorazm viloyat Qo'shko'pir tumani Beruniy ko'chasi 10 – A uy

E – mail: kushkupirtakm@gmail.com

Internet manzili: <https://kushkupirtakm.mobirisesite.com/>